

QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARINI YETISHTIRISH VA ULARNI SOTISH

Xodjiyeva Niyozgul Zohirovna

Buxoro Davlat Universiteti Buxoro davlat unversiteti magistri

Annotatsiya: *Hozirgi davrda insoniyat tarixi ortib borgani sari oziq-ovqatga bo'lgan talab ham kundan-kunga ko'paymoqda. Insonlar oziq-ovqat mahsulotlarini yilning istalgan bir vaqtida istemol qila olishi uchun bu mahsulotlarni turli xil saqlash usullari yordamida saqlaydi. Saqlangan mahsulotlar esa barcha insonlarga yetib borishi uchun bozorga chiqariladi va sotiladi.hattoki bir mamlakatdan boshqa davlatlarga eksport qilinadi.*

Kalit so'zlar: *mahsulot, yetishtirish, saqlash, oziq-ovqat.*

Qishloq xo'jalik mahsulotlari juda xilma xildir. Mahsulotlarni yetishtirish mahsulotlarning turiga qarab har xil bo'ladi. Chunki mahsulotlar turlicha sharoitni talab qiladi. Mamlakatimizda barcha sohalarda bo'lgani singari, meva-sabzavotchilikda ham tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Meva-sabzavot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida ular faoliyatining me'yoriy-huquqiy asoslari takomillashtirilmoqda. Meva-sabzavotchilik mamlakatimiz qishloq xo'jaligi iqtisodiyotida muhim o'rinni egallab bormoqda. Respublikamiz bo'yicha sabzavotlar ekin maydoni 189,7 ming gektar, meva va rezavorlar maydoni 271,6 (shundan hosilli tokzorlar 221) ming gektarni, tokzorlar maydoni 114,5 (shundan hosilli tokzorlar 103,6) ming gektarni tashkil etadi. Respublikamiz tokzorlarini 69,7 ming gektari yoki 61 foizi fermer xo'jaliklari, 39,1 ming gektari yoki 34 foizi dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri keladi. Barcha toifadagi xo'jaliklar bo'yicha tokzorlar hosildorligi 2014-2017-yillarda gektaridan o'rtacha 138,2 sentnerni, fermer xo'jaliklarida 110,3 sentnerni tashkil etgan. Respublikamizda yetishtirilgan uzumni yalpi hosilning 46-53 foizi fermer xo'jaliklari ulushiga to'g'ri kelmoqda. Keyingi yillarda mamlakatimizni meva-sabzavot mahsulotlarini xorijga eksport qilish salohiyati oshib bormoqda, xususan, mamlakatimizda yetishtirilgan uzum va un quritilgan mahsulotlariga bo'lgan talablarni oshib borishi kuzatilmoqda. So'nggi yillarda oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtirish hajmlarini ko'paytirish orqali ichki bozorni sifatli mahsulotlar bilan ta'minlash hamda mamlakatning eksport salohiyatini oshirish maqsadida ekin maydonlari sezilarli darajada kengaytirildi. Shuningdek, tumanlarni meva-sabzavotchilikka ixtisoslashtirish, mahsulot yetishtiruvchilarni meva-sabzavotchilik klasterlari hamda kooperatsiyalarga birlashtirish kabi amaliy choralar ko'rilmoqda. Jahon bozorlari talablariga javob bera oladigan raqobatbardosh qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishda hududlarni ixtisoslashtirish to'g'ri yo'l ekanligini ko'rsatmoqda.

Ta'kidlash joizki, jahon bozorlarida ekologik toza mahsulotlarga bo'lgan talab ortib borayotgan bo'lsada, ularni ishlab chiqarish an'anaviy ishlab chiqarishga

nisbatan katta xarajatlar sarflanadi. Jumladan, ekologik toza mahsulotlarning bahosi oddiy mahsulotlarga nisbatan 3-5 barobargacha qimmat turadi. Organik dexqonchilikning o'ziga xosligi shundaki, u an'anaviy dehqonchilikka nisbatan xarajatlarning yuqoriligi bilan farqlanadi. Organik mahsulotlar yetishtirishda ekologik toza havo, tuproq, suv va boshqa omillarning ahamiyati beqiyos va bevosita ana shu omillar bilan bog'liqdir.

Ekologik toza mahsulot yetishtiriladigan yerlarda, avvalo, 3 yil davomida tozalash tadbirlari o'tkazilishi talab etiladi. Shundan so'nggina tuproq tekshirilib, organik-ekologik toza mahsulot yetishtirish uchun sertifikat beriladi. Mahsulot yetishtirishda turli kimyoviy vositalar, minyeral o'g'itlardan foydalanish va genetik jihatdan modifikatsiyalangan ekin navlarini ekish qat'iy taqiqlanadi. Bunda bir qator agrotexnik tadbirlar qo'l mehnati evaziga bajariladi. Shunday usulda yetishtirilgan mahsulotlar organik yoki ekologik toza mahsulot nomini oladi. Har quanday mahsulotlarni yetishtirishda namlik, harorat, issiqlik va hokozolarga e'tibor qaratiladi.

Saqlash uchun yetishtirilgan mahsulotlar teriladigan vaqti kelganda jarohat yetkazmagan holda yig'ishtirib olinadi. Mahsulotlar tashish mashinalari yordamida saqlanadigan hududlargacha yetkaziladi. Mahsulotlar sifatiga, katta-kichikligiga qarab sartirotka qilinadi. So'ngra mahsulotlar saqlash joylariga joylashtiriladi. Albatta saqlash uchun qo'yilgan talablarni etiborga olgan holda. Mahsulotlar saqlash usullari yordamida saqlanadi va bir qismi bozrga chiqariladi boshqa qismi esa eksport qilish uchun boshqa davlatga yuboriladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Agrar va suv xo'jaligi masalalari qo'mitasi hamda O'zbekiston Fermerlari kengashi mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Konstitutsiyamiz qabul qilinganining 24-yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasidan kelib chiqadigan vazifalarga bag'ishlab davra suhbatini o'tkazdi.

Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili deb e'lon qilingan 2017-yilda aholi bilan muloqot qilishning samarali tizimini yo'lga qo'yish borasida O'zbekiston Fermerlari kengashi zimmasiga ham katta mas'uliyat yuklanadi. Zero, bugungi kunda fermerlik harakati aholining turmush darajasi va sifatini oshirishda, qishloqni jadal rivojlantirish va obodonlashtirishda, aholi bandligi va farovonligini ta'minlashda asosiy kuchga aylanib bormoqda.

Davlatimiz rahbari mamlakatimiz Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24-yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda qishloq xo'jaligi sohasini isloh qilish, yer va suv resurslaridan samarali foydalanish, ilg'or texnologiyalarni joriy etish inson manfaatlarini ta'minlash, qishloqlarda yashayotgan aholining hayot darajasi va sifatini oshirish bilan bevosita bog'liq ekanligini alohida qayd etdi. Bu esa sohadagi tizimli o'zgarishlarda ilg'or xalqaro tajribalarni qo'llagan holda, yuqori texnologiyaga asoslangan intensiv bog' va uzumzorlar barpo etish, eksportga yo'naltirilgan meva-

sabzavot va oziq-ovqat hamda chorvachilik mahsulotlari yetishtirishni ko'paytirishni talab etadi.

– Keyingi 5-yilda meva-sabzavot mahsulotlarini qayta ishlash hajmini 1,8 barobar oshirish, paxta xomashyosini chuqur qayta ishlash bo'yicha aniq rejalar belgilab olinmoqda, – deydi Bo'ka tumanidagi “Yoqutxon-Said” fermer xo'jaligi rahbari Saidislom Sa'dullaev. – Fermerlar paxta, g'alla, meva-sabzavot, poliz mahsulotlarini yetishtirish, qayta ishlash va ularning eksporti bo'yicha bor kuch-g'ayratini ayamaydi.

O'zbekiston qishloq xo'jaligi o'tgan besh yil davomida mamlakatni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasining eng muhim nuqtalaridan biri sifatida taraqqiy etib, o'zining yangi bosqichiga ko'tarildi. Zamonaviy va yangicha yondashuvlar, qabul qilingan qonunlar, muhim farmon va qarorlar, davlat dasturlari tarmoqni serdaromad, qishloq joylarda odamlarni ish bilan ta'minlaydigan tizim sifatida shakllanishini ta'minlab berdi.

Mamlakatda oziq-ovqat sohasini jadal rivojlantirish va diversifikatsiyalash esa uning xomashyo bazasini kengaytirish va mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini oshirish imkonini bermoqda. Buni O'zbekistonda oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishning o'sish sur'ati yiliga o'rtacha 9–10 foizni tashkil etayotganida ham ko'rish mumkin. Birgina misol, oxirgi besh yillikda o'lkamizda meva-sabzavot va uzum mahsulotlari ishlab chiqarish 1,6 baravarga, go'sht mahsulotlari va sut mahsulotlari 1,4 baravarga oshdi. Bu o'z-o'zidan eksport ko'lami kengayishiga ham xizmat qilmoqda. Natijada yurtimiz nafaqat o'zining 35 milliondan ortiq aholisini sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlay oladigan, balki oziq-ovqat eksport qiladigan sanoqli davlatlardan biriga aylandi.

Yurtimizda aholi ixtiyorida 500 ming gektar atrofida tomorqa mavjud. Ulardan samarali foydalanishni yanada oshirish aholini ish bilan ta'minlash va oilalarning daromadlarini ko'paytirishga xizmat qiladi. Mazkur yo'nalishni takomillashtirish maqsadida 23-noyabr kuni Prezidentning “Meva-sabzavotchilik va uzumchilikda oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida dehqon xo'jaliklarining ulushini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori qabul qilindi. Unga ko'ra, kelgusi yili paxta va g'alladan qisqartiriladigan 80 ming gektar yer aholiga dehqon xo'jaligi tashkil etish uchun berilishi belgilandi. Ularga tomorqa xo'jaliklarida mahsulot yetishtirishga ko'maklashish uchun esa kelgusi yilda 100 million dollar yo'naltirish rejalashtirilgan. Bu mablag' oilaviy tadbirkorlik dasturi asosida, imtiyozli shartlarda beriladi.

Xususan, dehqon va fermer xo'jaliklari, qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchi boshqa korxonalariga yer maydonida kichik intensiv bog'dorchilik va uzumchilikka 3 yilgacha imtiyozli davr bilan 7 yildan ko'p bo'lmagan muddatga, poliz, dukkakli, moyli ekinlar, kartoshka yetishtirish va sabzavotchilikka 6 oygacha imtiyozli davr bilan 2 yilgacha muddatga kreditlar ajratiladi.

Bu xalqimiz, ayniqsa qishloq joylarda istiqomat qiladigan yurtdoshlarimiz uchun katta imkoniyat. Ortga nazar tashlasak, beixtiyor avvalgi qishloq aholisi bilan bugungi

qishloq odamlarini solishtiramiz. Ularning hayot tarzi, yashash darajasi, daromadida sezilarli farq yuzaga kelgani ko'zga tashlanadi. Avvalo, xalqimizda bugun bo'sh yer maydonlaridan unumli foydalanish, kichik tomorqadan ham yaxshigina daromad olish ko'nikmasi shakllandi. Bu o'z-o'zidan sodir bo'lgani yo'q, albatta. So'nggi yillarda mamlakatimizda dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalariga ajratilgan maydonlardan samarali foydalanish, ularning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, qishloq aholisining bandligi va turmush darajasini oshirish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Natijada o'z tomorqasida ekin ekib, undan foyda olish ko'pchilik yurtdoshlarimizning asosiy daromad manbaiga aylandi. Jumladan, ayni kez 5,5 milliondan ortiq tomorqa er egasi o'z ixtiyoridagi 502,8 ming gektar yer maydonida dehqonchilik qilmoqda. Yurtimizda yetishtirilayotgan kartoshkaning 84 foizi, sabzavot mahsulotlarining 71 foizi, poliz, uzum va mevalarning 55-60 foizi, chorvachilik mahsulotlarining 94 foizdan ortig'i aholi xonadonlari hissasiga to'g'ri kelyapti. Umuman, o'tgan vaqt davomida O'zbekiston fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa er egalari kengashi tomonidan aholi tomorqalaridan olinadigan daromadlarini oshirish bo'yicha bir qancha yo'nalishlar belgilab olinib, bu borada tizimli ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Hududiy hokimliklar bilan birgalikda 2021-yilda qishloq xo'jaligi ekinlarini ekish bo'yicha ishlab chiqilgan dasturlarga asosan 347,8 ming gektar aholi tomorqalariga erta bahorgi ekinlar, 267,4 ming gektarga takroriy ekinlar ekildi. Dastlabki hisob-kitoblarga ko'ra, joriy yil yakuniga qadar aholi tomorqalarida 11,6 million tonnadan ziyod qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish ko'zda tutilmoqda. Bu o'tgan yilga nisbatan 110 foiz yuqori.

Xonadon tomorqasida har kim o'z imkoniyati, ixtiyoriga qarab mahsulot yetishtiradi. Talabgorlar orasida meva-sabzavotchilikka qiziqadiganlar ham ko'pchilik. Ayrimlari bu ish bilan avvaldan shug'ullanib kelgan bo'lsa, ba'zilar tajribali dehqonlardan ishning hadisini olib, so'ng jarayonga kirishadi. Asosiysi, vaqtini ham, hovlidagi yer maydonini ham bo'sh qoldirmay, oilasi daromadiga hissa qo'shadi.

Bir tarafdin mahsulot yaxshi saqlanadi, insonlar sifatli mahsulotlardan foydalanadilar. Yana bir tarfdin o'z mahsulotlarimiz chet davlatlarga eksport qilinadiva jahon bozorlariga chiqariladi. Eng asosiysi esa mahsulot isrofgarchiligini oldi olinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. E. Reverchon, J. Supercrit. Fluids, 1997, 10, 1-37.
2. W.K. Modey, D.A. Mulholland, and M.W. Raynor, J. Chromatogr. Sci., 1996, 34, 320-325.
3. K.D. Bartle, A.A. Clifford, S.B. Hawthorne, J.J. Langenfeld, D.J. Miller, and R. Robinson, J. Supercrit. Fluids, 1990, 3, 143-149.

4. Сафаров А.Ф., Гафуров К.Х., Применение сжиженного углекислого газа как растворителя для получения экстрактов из растительного сырья (обзор) Монография Бухара 2014., С. – 87-95.
5. Нх.Л. Малашенко, С.М. Силинская, В.С. Коробицын, Высокоэффективные газожидкостные и сонохимические технологии в пищевой промышленности, Монография, Краснодар 2013., С. -16-27.
6. M.D. Luque de Castro, M.M. Jiménez-Carmona, and V. Fernández-Pérez, Trends Anal. Chem., 1999, 18, 708-716.
7. Q. Lang and C.M. Wai, Talanta, 2001, 53, 771-782.
8. S.M. Pourmortazavi and S.S. Hajimirsadeghi, J. Chromatogr. A, 2007, 1163, 2-24.
9. Касьянов Г.И., Коробицын В.С., Рохмань С.В. Установки для сверхкритической CO₂-экстракции, // Суб – и сверхкритические флюидные технологии в пищевой промышленности, Материалы международной научно-технической Интернет-конференции, Краснодар 2012 г. С. – 47-49.
10. К.Х. Гафуров, Б.Т. Мухаммадиев, Ш.У. Мирзаева. Сверхкритическая [СК] CO₂ экстракция глицирризиновой кислоты из местных лакричных корней. // Бутлеровские сообщения №1, том 49. 2017, Татарстан, С. 108-114.
11. Е.И. Мясинникова, Совершенствование технологического оборудования для CO₂ – экстракции Известия вузов. Пищевая технология №4, 2011., - С. 94-97.
12. Baxtiyorovna, D. M. (2022). Food safety management. Texas Journal of Multidisciplinary Studies, 8, 64-67.
13. Bakhtiyarovna, D. M., Shakhidovich, S. S., Khalilovich, M. K., Mukimovna, A. Z., & Karimovna, Y. N. (2020). Investigation Of The Effect Of Plant Extracts On The Rheological Properties Of Wheat Dough. The American Journal of Agriculture and Biomedical Engineering, 2(09), 41-47.
14. Glushenkova, A. I., Sagdullaev, S. S., & Davlyatova, M. B. (2017, September). Oil cake of sesamium Acad. In S. YU. Yunusov institute of the chemistry of plant Substances AS RUz «12 th International Symposium on the Chemistry of Natural Compounds (p. 202).
15. Davlyatova, M. B., Shernazarova, D. S., & Rashidova, G. N. (2022). Studying the effect of plant extracts on the rheological properties of wheat flour. Science and Education, 3(12), 398-405.
16. Bahtiyarovna, D. M., Shakhsaidovich, S. S., Khalilovich, M. K., Mukimovna, A. Z., & Karimovna, Y. N. (2020). Nutritional And Biological Value
17. Of National Breads With The Use Of Vegetable Extracts. The American Journal of Agriculture and Biomedical Engineering, 2(09), 85-96.
18. Давлятова, М. Б., & Рашидова, Г. Н. ПОЛУЧЕНИЕ ЦЕЛЕБНЫХ НАЦИОНАЛЬНЫХ ХЛЕБОБУЛОЧНЫХ ИЗДЕЛИЙ С ДОБАВКАМИ ПО СТАНДАРТУ.

19.Davlyatova, M., & Rashidova, G. (2022). OBTAINING HEALING NATIONAL BAKERY PRODUCTS WITH ADDITIVES ACCORDING TO THE STANDARD. *Science and Innovation*, 1(5), 135-149.

20.Glushenkova, A. I., Sagdullaev, S. S., & Davlyatova, M. B. (2017, September). Oil cake of sesamiumAcad. In S. YU. Yunusov institute of the chemistry of plant Substances AS RUz «12 th International Symposium on the Chemistry of Natural Compounds (p. 202).

21.Bakhtiyorovna, D. M., Shukhratovna, S. D., & Nodirovna, R. G. (2023). Quality of Service and its Provision, Definition and Principles of SLA. *Web of Synergy: International Interdisciplinary Research Journal*, 2(5), 650-653.

22.Davlyatova, M. B., Shernazarova, D. S., & Rashidova, G. N. (2022). Studying the effect of plant extracts on the rheological properties of wheat flour. *Science and Education*, 3(12), 398-405.

23.Davlyatova, M., & Rashidova, G. (2022). ПОЛУЧЕНИЕ ЦЕЛЕБНЫХ НАЦИОНАЛЬНЫХ ХЛЕБОБУЛОЧНЫХ ИЗДЕЛИЙ С ДОБАВКАМИ ПО СТАНДАРТУ. *Science and innovation*, 1(A5), 135-149.

24.Sagdullaev, S. S., Inoyatova, F. I., Glushenkova, A. I., & Davlyatova, M. B. (2017, September). Lipids of zizyphusjujuba fruitsAcad. In S. YU. Yunusov institute of the chemistry of plant Substances AS RUz «12 th International Symposium on the Chemistry of Natural Compounds.

25.Djuraev , K., Yodgorova , M., Usmonov , A., & Mizomov , M. (2021, September). Experimental study of the extraction process of coniferous plants. In *IOP Conference Series: Earth and Environmental Science* (Vol. 839, No. 4, p. 042019). IOP Publishing .

26.Yodgorova , MO (2022). DETERMINATION OF BIOLOGICALLY ACTIVE SUBSTANCES BY MODERN METHODS. *The American Journal of Engineering oath Technology* , 4 (02), 5-8.

27.Djurayev , K., Yadgarova , M., Khikmatov , D., & Rasulov , S. (2021, September). Mathematical modeling of the extraction process of coniferous plants. In *IOP Conference Series: Earth and Environmental Science* (Vol. 848, No. 1, p. 012013). IOP Publishing .

28.Djuraev , Kh. F., Mukhammadiev , B. T., & Yodgorova , M. O. (2021). MODELIROVANIE PISHCHEVOY BEZOPASNOSTI. *Economics and society* , (2-1 (81)), 589-595.

29.Xudoyberdiyevna, K. M. (2023). Management System Requirements for Certification Bodies. *Web of Synergy: International Interdisciplinary Research Journal*, 2(5), 620-624.

30.Kamolova, M. K., Kamolova, M. K., Bozorova, S. N., & Ubaydulloyeva, S. L. (2023). LIFE PATHS OF GREAT FIGURES, GREAT SUFFERINGS, BRAVE AND HEROIC CHILDREN. *SCHOLAR*, 1(31), 156-160.

31. Khudoyberdiyeva, K. M., & Furkat o'g'li, S. M. (2022). Main Requirements of the O'zDSt ISO\IEC Standard 17021: 2009. *Texas Journal of Engineering and Technology*, 8, 4-9.

32. Tosheva, G. D., & Toirov, B. B. (2020). INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR TA'LIM TARAQQIYOTINING ASOSIY KUCHI VA TUTGAN O'RNI. *Science and Education*, 1(8), 222-228.

33. Nurillayeva, T. Z., Barotovich, O. S., Djurayeva, T. G., Muxiddinova, T. N., & Abduformonova, A. F. (2021). Research of Foot Sizes of Younger School Children for the Purpose of Identification of Static Deformations. *Annals of the Romanian Society for Cell Biology*, 4723-4741.

34. Тошева, Г. Д. (2016). Совершенствование процесса проектирования одежды на основе компьютерных технологий. *Молодой ученый*, (2), 245-247.

39. Хайдаров, Ш. Х. (2023). Мускатли шампан виноси учун ярим тайёр маҳсулотини тайёрлаш технологияси. *Science and Education*, 4(11), 161-167.

40. Шодиев, С. С. (2010). Интенсификация процесса тепловой обработки косточковых малосодержащих материалов с использованием нетрадиционных методов подвода энергии: диссер. на соис. академ. степени магистра.

41. Шадиёв, С. С. (2015). Совершенствование процесса подготовки преподавателей технических дисциплин с учётом требований современной системы образования. *Молодой ученый*, (8), 1075-1078.

42. Xaydarov, S. X., & Ozodova, M. U. (2024). MUSKAT YONG'OG'I YORDAMIDA SHAMPAN VINOSINI ISHLAB CHIQRISH TEXNOLOGIYASI. *MASTERS*, 2(4), 84-86.

43. Boboqulovich, T. B., Sadilloevich, S. S., & Kamolovna, A. F. (2023). CURRENT TENDENCIES IN THE DEVELOPMENT OF METROLOGICAL SUPPLY OF MEASURING INSTRUM. *American Journal of Technology and Applied Sciences*, 19, 102-105.